

**MIRZO ULUG'BEK -ILM-FAN VA MADANIYAT HOMIYSI****Azamova Muxabbat G'anigonovna**

O'zDJTSU katta o'qituvchisi.

**E-mail: [muxabbat.jism@gmail.com](mailto:muxabbat.jism@gmail.com)****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20356644>**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola buyuk bobokalonimiz, o'rta asr ilm-fani homiysi, davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlanadi. Maqolada unuing dunyo ilm-faniga qoshgan hissasi haqidagi ma'lumotlar keng o'rin olgan

**Kalit so'zlar:** Samarqand, Ulug'bek, Amir Temur, tarix, astronomiya, yulduzlar ilmi, zij, rasadxona, madrasa, ilm-fan, ma'naviyat.

**МИРЗО УЛУГБЕК -ПОКРОВИТЕЛЬ НАУКИ И КУЛЬТУРЫ**

**Аннотация.** Данная статья посвящена жизни и научной деятельности нашего великого предка, государственного деятеля и покровителя науки Мирзо Улугбеку. В статье приводятся данные о великом вкладе в мировую науку великого учёного.

**Ключевые слова:** Самарканд, Улугбек, Амир Тимур, история, астрономия, наука о звёздах, таблица, обсерватория, медресе, духовность.

**MIRZO ULUGBEK IS THE PATRON SAINT OF SCIENCE AND CULTURE**

**Abstract.** This article is dedicated to the life and scientific work of our great ancestor, statesman, and patron of science, Mirzo Ulugh Beg. The article presents information about the great scientist's significant contributions to world science.

**Keywords:** Samarkand, Ulugbek, Amir Timur, history, astronomy, science of stars, Zij, Observatory, madrasah, spirituality.

**Kirish.** Buyuklar avlodi Mirzo Ulug'bek, uning to'liq ismi sharifi Muhammad Tarag'ay Shoxruh o'gli Temur nabirasi Mirzo Ulug'bek. Ulug'bek, unga bobosi Amir Temur tomonidan derilgan tahallus. U 1394 yilning 22 martida hozirgi janubiy Ozarbayjonning Sultoniya shahrida tavallud topgan va 55 yoshida, 1449 yil 27 oktabrda Samarqandda fojeali xalok bo'lgan. O'zbek xalqining faxri-iftixori Muhammad Tarag'ay Ulug'bekni butun dunyodqa astronomiya fanining yirik vakili, adolatli shox sifatida ulug'lashadi. Uning rahbarligida tuzilgan yulduzlar jadvali butun dunyodagi sayyohlarga, dengizchilarga ishonchli mayoq sifatida 500 yildan buyon xizmat qilib kelmoqda va hozirgi kunda ham bu jadval o'zining aniqligi jihatidan ilmiy va amaliy qiymayini yo'qotmagan.

**Asosiy qism.** Ulug'bek keng qamrovli olim, astronom, matematik, tarixchi va faylasuf, mutafakkir hamda iste'dodli davlat arbobi bo'lgan. Amir Temurning nevarasi Muhammad Tarag'ayni go'dakligidan bilimdon tarbiyachilar qo'lida tarbiyalanishiga alohida e'tibor qaratgan.

Ulug'bekning ilk ustozlari mashhur matematik olim Qozizoda Rumi bo'lgan.

Ulug'bekning ustozlaridan biri munajjim Mavlono Ahmab bo'lganligini ham taxmin mumkin, chunki bu kishi Temyrning saroyidagi eng yirik olimlardan bo'lib, sayyoralarning ikki yuz yillik kelajak taqvimlari jadvalini tuza olgan.

Ulug'bek shoxona oilada, mahsus bilimdon va qattiqqo'l murabbiylar tarbiyasida voyaga yetgan. Uning bolaligi Temur saltanatining g'arbiy hududida, hozirgi Ozarbayjonning Sultoniya shahri va Amir Temurning Qorabog'dagi chorbog'ida o'tgan. Amir Temur Qoradog'da qishlashni xush ko'rgan. Ulug'bek 1405 yilgacha buvisi Saroy Mulk Xonimning e'tidorli tarbiyasi ostida bo'lgan.

U yoshligidanilm o'rganishdan tashqari jismoniy mashqlar bajarish, otda yugurish, qilich chopish, yoy otish, suvda suzish bilan faol shug'ullangan. U bir xil tarzdagi kundalik rejimga bo'ysundirilgan edi, har kuni qur'onni yob olish mashqlarini bajargan va tinimsiz takrorlagan. Shu sababli uning xotirasiva zehni o'tkir, irodasichiniqqan bo'lgan.

Bundan tashqari Amir Temur nevarasini kopincha o'zi bilan olib yurib, uning aslzodalar odatlarini puxtaroq egallashiga sharoit yaratib, xos mehmonlarni kutish marosimlarida ham ishtirok etishiga alohida ahamiyat bergan. Ulug'bek yoshligidanulug' bobosining yonida yurib, saltanat manfaatlarini anglashni va uni himoya qilishni tushunib brogan. 11 yoshli Muhammad Tarag'ay hatto bobosining vafoti paytida (1405.18 fevral, O'trorda) ham u bilan birga edi. Temur vafotidan keyin ikki yil davomida uning avlodlari ortasida taxt uchun kurash davom etadi.

Kurashda Temurning kenja o'g'li Shoxruhning qo'li baland keladi. U o'z davlati poytaxti sifatida Hirotni tanlaydi, Movaraunnahr poytaxti Samarqandni esa o'g'li Ulug'bekka topshiradi.1411 yilda 17 yoshli Ulug'bek Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanadi.

U yoshligida fan va san'at turlariga, aybiqsa, matematika va astronomiyaga katta qiziqish bildiradi. Ulug'bek yaxshi ta'lim olgan, ajoyib xotira egasi bo'lib, arab va fors tillarini yaxshi bilgan, turk she'riyatidan yaxshi habardor bo'lgan. O'zi ham she'rlar yozgani haqida ma'lumotlar bor. Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida ilm-ma'rifatga katta e'tibor qaratadi. Ilm ahliga yaxshi sharoitlar yaratadi. Ulug'bek davrida Samarqand ilm-fan o'choqlaridan biriga aylandi. U yerda XV asrning birinchi yarmida Ulug'bekning atrofida G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi taniqli astronom va matematiklarni birlashtirgan katta ilmiy maktab vujudga keladi. U vaqtlar Samarqandda O'rta Osiyo haqida ajoyib asar yozgan tarixshunos Hofiziy Abru, taniqli shifokor Mavlono Nefis, shoirlar Sirojiddin Samarqandiy, Sakkokiy, Lutfiy, Badaxshiy va boshqalar yashagan. Ular o'z davrining eng ilg'or fikrli va ilimli kishilari bo'lgan.Ulug'bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma'lum va mashhuri "Zij" bo'lib,bu asar "Ziji Ulug'bek","Ziji jadidi Kuragoniy" deb ham ataladi. "Zij"dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari bo'lmish "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", astronomiyaga oid "Risolai Ulug'bek" (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir "Tarixi arba ulus"(To'rt ulus tarixi) asaridir.

Ma'lumotlarga ko'ra u tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan.



### Mirzo Ulug'bekning "Zij"i qo'lyozmasi<sup>1</sup>


Ulug'bek ko'p vaqtini osmon jismlarini tadqiq etishga sarflar edi. U o'zi tushungan xulosalarni mustaqil o'lchov va klassifikatsiyasini yaratardi. Shogirdlaridan biri izlanishlarini e'lon qilishni taklif etganida, ishni oxiriga yetkazmaguniga qadar bunga rozi bo'lmagan. Barcha yulduzlar guruhlanmaguncha bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi, tayyor bo'lishiga hali o'n yillar bor, deb hisoblagan Mirzo Ulug'bek. Ammo shogirdi ustozini yozma manba qoldirishga kondirgani dunyo ilm-fani ravnaqi uchun buyuk merosni asrab qolishga juda katta yordam berdi. Bu yangi "Gurgon astronomik jadvali" bo'lib, uni lotin tiliga qilingan tarjimasi xuddi kosmokreyser uchun yo'riqnomaday edi. XVII asrga kelibgina uning aniqligini tekshirib ko'rish imkoniyati tug'ildi.

Yakuniy tekshiruv XX asrning 90-yillarida amalga oshirildi. Yil uzunligini aniqlashda Ulug'bek bir necha soniyaga adashgan ekan xolos. Xozirgi kunda "Zij" asarining yuzga yaqin forsiy va 15 dan ortiq arab tilida nusxasi mavjud. U musulmon mamlakatlarning deyarli barchasida o'rganilgan. Shunday bo'lishiga qaramay, "Zij" asari umuman olganda to'liq o'rganilmagan va biror zamonaviy tilga to'liq tarjima qilinmagan. 1994 yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubileyi munosabati bilan asarning ilk bor rus tilidagi tarjimasi nashr etildi. Shu yili Ulug'bekning yana bir asari "To'rt ulus tarixi" ham Toshkentda o'zbek tilida nashr etiladi.

Ulug'bekdan bizgacha u qurdirgan me'moriy obidalar meros bo'lib qoldi. 1417-1420 yillarda Samarqandda, Registon maydonida madrasa qurdiradi va islom olamining jahonga mashxur astronom va matematik olimlarini madrasaga taklif etadi. Ulug'bek davrida Samarqand dunyo ilm-fani markaziga aylanadi. 1424-1428 yillar davomida dunyoga mashxur Rasadxona barpo ettiradi. 8 yoshga to'lgan Ulug'bek bobosi Temur bilan Suriya va Kidhik Osiyoga yurishlariga birga boradi va u yerda XIV asrga qadar saqlanib qolgan va zamonasining eng yirik rasadxonasi hisoblangan Maraga rasadxonasini ko'radi. Maraga rasadxonasi Eron hududida joylashgan Maragheh shahri yaqinida joylashgan bo'lib, XIII asrda qurilgan asoschisi – mashxur olim Nasir al-Din al-Tusi. U yerda 400 dan ortiq qo'lyozma saqlanar, 100 dan ortiq olimlar faoliyat olib borardi. Shu vaqtdan e'tiboran Ulug'bekda astronomiyaga qiziqish paydo bo'lgan.

Chuqur bilimi va shohona sharoiti sababli o'z davrining eng yaxshi jihozlangan astronomic markazini tashkil qildi. Rasadxona dumaloq shaklda bo'lib, diametric 46 metr, balandligi 10 qavat uyning balandligi bilan teng edi. Imorat 3 qavat bo'lib, har qavati 10 metr balandroq qilib qurilgan. Ichida meridian chizig'i bo'ylab uzunligi 64 metrlik kvadrant joylashgan. Teleskop ixtiro qilingunigacha u yulduzlarni kuzatishda asosiy qurilma bo'lib xizmat qilgan. Rasadxona 2 qismdan iborat bo'lib, ustki qavati asrlar davomida yemirilib ketgan.

Xozirda uning faqat yerosti qismi saqlanib qolgan.



**MIRZO ULUG'BEK**

<sup>1</sup> <https://yandex.kz/images/>

**Mirzo Ulug'bek rasadxonasi<sup>2</sup>**

XV asrda Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek qurdirgan rasadxonada kattagina globus bo'lgan. Unda iqlimlarning chegaralari, tog'lar, cho'llar, dengizlar va daryolar ko'rsatilgan.

Binobarin, dunyodagi ikkinchi globusni Samarqand astronomlari yasashgan.

Ulug'bekning o'limidan keyin u mutaassiblar tomonidan yo'qotilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Ulug'bek Samarqandda balandligi 50 metrli quyosh soati yasagan. Ushbu noyob soat ham saqlanib qolmagan.

Ulug'bek nafaqat yulduzlar ilmini, balki matematika, iqtisod, tarix ilmini mukammal bilgan arbob hamdir. 1428 yilda u saltanatning iqtisodiy salohiyatini ko'tarishga turtki bo'lgan muhim pul islohotini o'tkazadi.

U ajoyib xotira egasi bo'lib, arab va fors tillarini yaxshi bilgan, turk she'riyatidan yaxshi habardor bo'lgan. O'zi ham she'rlar yozgani haqida ma'lumotlar bor.

**XULOSA.** Ajdodlar merosi avlodlar uchun muqaddas. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institute qo'lyozmalar fondida Mirzo Ulug'bekning samarqandlik hattot Azizullo tomonidan nash hati asosida taxminan 1439 yilda, Ulug'bek 45 yoshda bo'lganida ko'chirilgan "Ziji Ko'ragoniy"si saqlanmoqda. Qo'lyozma sahifalarida Ulug'bekning tuzatishlari ham bor.

Ushbu tuzatishlar uning dastxati, yozuvi haqida ma'lumot beradi. Biz buyuk tariximiz va buyuk bobokalonlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ularning buyuk ishlari va ilmiy me'rosi kelajak avlodlarga yetib borishi uchun barcha sa'y harakatlarni amalga oshiraqimiz. 1966 yilda O'zbekistonda "Ulug'bek yulduzi" filmi suratga olindi. Yozuvchi Maqsud Shayhzoda 1964 yilda "Mirzo Ulug'bek" p'yesasini yozgan. Yozuvchi Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasini" (1970-1973) romanini yaratgan. Yozuvchi va shoir Xurshid Davron "Sohibqironning nabirasi" qissasi va "Algul yulduzi yoki Ulug'bekning so'nggi kuni" pyesasini yozgan. 1970 yillarda O'zbekistonda Odil Yoqubovning romani asosida "Ulug'bek xazinasini" ko'p qisimli videofilmi suratga olingan. O'zbekiston Milliy universiteti Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi, Toshkent, Samarqand, Buxoro va O'zbekistonning boshqa shaharlaridagi hiyobon va ko'chaklarga Mirzo Ulug'bek nomi berilgan. Qozog'stonning Olmaota shahrida Mirzo Ulug'bek nomli ko'cha bor.

Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutiga uning nomi berilgan. Toshkent metropolitenidagi bekatlardan biri, poytaxt tumanlaridan biri Mirzo Ulug'bek nomi bilan atalgan. 1994 yil Mirzo Ulug'bek yili deb e'lon qilindi. Shu yil Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi. Toshkent va Samarqandda Mirzo Ulug'bek sharafiga haykallar o'rnatilgan. 1994 yil 600 yillik yubileyi YUNESKO tomonidan jahon miqyosida keng nishonlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ashraf Ahmedov. "Volter va Ulug'bek" <https://kh-davron.uz/>
2. M. Mamadazimov. "Mirzo Ulug'bek va ilmiy merosi"
3. B.B. Bartold. Ulug'bek I yego vremya. Sochineniya T II.ch.2 str.71
4. Rizayeva, N. K. Ulug'bek va uning ilmiy merosi. Toshkent: Fan, 1985. – 120 bet.
5. Muxtorov, M. T. Ulug'bek va Samarqand rasadxonasi. Toshkent: Fan, 1964. – 100 bet.
6. Lutfillaev, O. Mirzo Ulug'bek va uning astronomiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 1994. – 140 bet.
7. Bartold, V. V. Istoriya kul'turnoy zhizni Turkestana (Turkiston madaniy hayoti tarixi). Moskva: Nauka, 1927. – 450 bet.

<sup>2</sup> <https://yandex.kz/images/>

8. <https://kh-davron.uz/>
9. <https://sputniknews.uz/>
10. <https://uz.wikipedia.org/>
11. <https://ya.ru/search/>
12. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mirzo\\_Ulugbek](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mirzo_Ulugbek)